

DALILLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING NAZARIY-HUQUQIY MOHIYATI**Abdullayev Akmaljon Yulchiboyevich**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
dastlabki tergov va surishtiruv kafedrası o'qituvchisi, yu.f.f.d. (PhD).

Ibragimova Shahzoda Shuxrat qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tergov faoliyati 3-kurs talabasi.

e-mail: ibragimovashahzoda0303@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20561965>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat protsessida dalil tushunchasining huquqiy tabiati va uning isbotlash jarayonidagi o'rni tadqiq etilgan. Ishda dalil tushunchasining protsessual va mantiqiy elementlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasi hamda milliy va xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari qiyosiy huquqiy tahlil asosida o'rganilgan. Mazkur tadqiqot davomida tergovga qadar tekshiruv bosqichida dalil to'plash subyektlari huquqiy maqomidagi bo'shliqlarni aniqlashtirish hamda JPKning 81-moddasi 1-qismini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi mualliflik loyihasini asoslash ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, dalil tushunchasi, haqiqiy ma'lumotlar, dalil manbasi, dalillar maqbulligi va tergovga qadar tekshiruv organi.

Аннотация. В данной статье исследуются правовая природа понятия доказательства в уголовном процессе и его роль в процессе доказывания. Процессуальные и логические элементы понятия доказательства изучены на основе сравнительно-правового анализа статьи 81 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, а также научных подходов отечественных и зарубежных ученых. В ходе данного исследования выдвинуты выявление пробелов в правовом статусе субъектов сбора доказательств на стадии доследственной проверки и обоснование разработанного авторского проекта в новой редакции, направленного на совершенствование части 1 статьи 81 УПК.

Ключевые слова: уголовный процесс, понятие доказательства, фактические данные, источник доказательств, допустимость доказательств, орган доследственной проверки.

Abstract. This article examines the legal nature of the concept of evidence in criminal proceedings and its role in the process of proof. The procedural and logical elements of the concept of evidence are studied based on a comparative legal analysis of Article 81 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, as well as the scientific approaches of national and foreign scholars. In the course of this research, identifying gaps in the legal status of subjects collecting evidence at the pre-investigation check stage and justifying a newly revised author's draft designed to improve Part 1 of Article 81 of the CPC are put forward.

Keywords: criminal procedure, concept of evidence, factual data, source of evidence, admissibility of evidence, pre-investigation check body.

Barchamizga ma'lumki, jinoyat protsessining asosiy vazifasi jinoyatlarni tez va to'la ochish, aybdorlarni fosh etish va qonunlarni to'g'ri tadbqiq etilishini ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur vazifalarni ta'minlashni dalillarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mazkur vazifalar dalillar yordamida isbot qilish orqali amalga oshirilishi uning protsessual qadriyat sifatidagi qadrini yanada oshiradi.

Dalillar haqidagi ta'limot jinoyat protsessining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Jinoyat protsessi deganda, odatda, jinoyat ishining muayyan bosqichlar orqali harakatlanishi tushuniladi. Shu jarayonda sud tomonidan qabul qilinadigan barcha qarorlar, xususan, shaxsning aybdor yoki aybsizligi haqidagi yakuniy xulosalar aynan dalillarga asoslanadi.

Shu jihatdan qaralganda, dalillar masalasi jinoyat ishlarini sudda ko'rib chiqish tizimida markaziy o'rin egallaydi. Aynan dalillar orqali ishning haqiqiy holatlari aniqlanadi va ular asosida huquqiy baho beriladi.

Dalil tushunchasi dalillar nazariyasi va isbotlash huquqida asosiy hamda boshlang'ich kategoriyalardan biri hisoblanadi. Protsessual nuqtai nazardan qaraganda, ishga oid faktik holatlar yuzasidan qonunda belgilangan tartibda olingan ma'lumotlar dalil sifatida e'tirof etiladi.

Dalil, shuningdek, muhokama qilishning muayyan mantiqiy usuli sifatida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni, aniqlangan faktlar asosida boshqa holatlarning mavjudligi tasdiqlanadi yoki rad etiladi. Shu bois jinoyat protsessida "dalillar" tushunchasining qo'llanilishi aynan mantiqiy isbotlash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki aynan shu yo'l bilan o'tmishda sodir bo'lgan hodisalar qayta tiklanadi va baholanadi. Dalil tushunchasining mazmuni jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega.

Haqiqatga erishish, qonuniylikni ta'minlash hamda chiqarilayotgan qarorlarning asoslangan bo'lishi ko'p jihatdan dalil tushunchasining to'g'ri anglanishiga bog'liqdir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, "dalil" atamasi turli ma'nolarda qo'llaniladi. U nafaqat huquq sohasida, balki inson faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlarida uchraydi. Mantiq fanida esa dalil deganda muayyan fikrning to'g'riligini boshqa fikrlar orqali asoslash jarayoni tushuniladi. Shu ma'noda dalil har qanday bilish faoliyatiga xos bo'lib, u jinoyat ishlarida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, jinoyat ishi bo'yicha dalillarning umumiy ta'rifi JPKning 81-moddasida berilgan. Ushbu modda talabiga muvofiq, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi.¹

Demak, ushbu moddaning tahliliga ko'ra, dalilning asosini haqiqiy ma'lumotlar tashkil etib, ushbu haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil kuchiga ega bo'lishi uchun o'zida quyidagi belgilarni mujassamlashtirishi shart hisoblanadi:

- ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligidan dalolat berishi;
- ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini ko'rsatishi;
- ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni o'zida mujassamlashtirganligi;
- qonunda belgilan tartibda surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan aniqlanishi.

Dalillar to'g'risidagi ta'limot jinoyat-protsessining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Agar jinoyat protsessi deyilganda jinoyat ishining ma'lum harakatlanishi tushunilsa, jinoyat ishlarini sudda yuritishda qabul qilinadigan qarorlar, shu jumladan, sudlanuvchining

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 81-moddasi. <https://lex.uz/docs/-111460#-253745>

aybdorligi yoki aybsizligi to'g'risidagi asosiy qarorlar dalillargagina asoslanib chiqariladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dalillar muammosi jinoyat ishlarini sudda yuritishning butun tizimida markaziy bo'g'inni tashkil etadi.

Qonunchiligimizda faktlar to'g'risidagi ma'lumotlar haqiqiy ma'lumotlar deb yuritiladi.

Quyida har bir atamaning ma'nosiga qisqacha to'xtalib o'tsak. **Ma'lumotlar** – biror bir qaror, xulosa chiqarish uchun zarur bo'lgan xabarlardir. **Faktlar** esa obyektiv ijtimoiy borliqdagi hodisalar hisoblanadi. Faktlar jinoyatlarning tergovini yuritayotgan shaxslarga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi. **Faktlar to'g'risidagi xabarlar** – faktlarni ular orqali anglashimiz mumkin bo'lgan ma'lumotlar. Ma'lumotlar haqiqiy yoki sohta bo'lishi mumkin. Haqiqiy ma'lumotlar jinoyatning ochilishiga yordam bersa, soxta ma'lumotlar bunga to'sqinlik qiladi.²

Haqiqiy ma'lumotlar va ularning manbalari o'zaro bog'liqlikda bo'lib, ularning birlashuvi dalilning vujudga kelishiga asos bo'ladi. Jinoyat protsessining asosiy vazifasi jinoyat ishi bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlashdir, buning uchun esa ish bo'yicha aniqlangan har bir dalil, ma'lumot, fakt isbotlanishi lozim. Isbotlash murakkab jarayon bo'lib, jinoyat protsessining negizi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, isbot qilish – jinoyat protsessual faoliyatini tartibga soluvchi, shuningdek, sudlov faoliyatidagi jinoyat ishi bo'yicha haqiqatga erishishni ta'minlovchi jarayondir. Bu jarayonning mohiyati uning elementlarida, ya'ni dalillarni to'plash, tekshirish, mustahkamlash va baholashda aks etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi insonning sha'ni va qadr – qimmatli oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi. Konstitutsiyaviy tamoyil hisoblangan aybsizlik prezumpsiyasiga ko'ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi, ya'ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi. Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda to'plangan, tekshirilgan va baholangan dalillar vositasidagina isbotlanishi mumkin.

Chunki, jinoiy hodisa isbot qilish majburiyati yuklatilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sud uchun o'tmish hodisasi bo'lganligi sababli, uning barcha holatlarini ular faqat isbot qilish vositasi bo'lmish dalillar yordamida aniqlashlari va tegishli xulosaga kelishlari mumkin.

Shu nuqtayi nazardan milliy va xorijiy olimlarning dalillar tushunchasiga bergan ta'riflarini tahlil qilsak maqsadga muvofiq hisoblanadi.

B.A.Rajabov “dalil deganda, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan yuz bermaganligini, shu qilmishni kim s odir etganligini va uning sodir etilishida kimlar aybliligini hamda ishni haqqoniy hal etish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashga asos bo'ladigan, qonunda belgilangan tartibda to'plangan ma'lumotlar tushuniladi”.³ B.A. Rajabov tomonidan berilgan ushbu ta'rifni tahlil qiladigan bo'lsak, uning ta'rifi jinoyat protsessida dalil tushunchasining mazmun-mohiyatini kompleks tarzda ifodalaydi. Ushbu ta'rifni tahlil qilganda, unda dalilning bir nechta muhim belgilarini ajratib ko'rish mumkin.

² Yangiyev G'.A. Jinoyat sudlov ishlarini yuritishda dalillarga baho berishni takomillashtirish. Diss..., Toshkent, 2020. B-16

³ B.A.Rajabov Jinoyat protsessida isbot qilishning umumiy shartlari: Monografiya – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.-156B.

Birinchidan, muallif dalilni ijtimoiy xavfli qilmishning mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash vositasi sifatida ko'rsatadi. Bu jihat dalilning asosiy vazifasi — haqiqatni aniqlash ekanligini anglatadi. Ya'ni dalil faqat ayblash uchun emas, balki shaxsning aybsizligini ham isbotlashga xizmat qiladi. Shu orqali dalilning ikki tomonlama (ayblov va himoya) xarakteri namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, ta'rifda dalil shaxsni aniqlash vositasi sifatida ham ko'rsatilgan. Ya'ni dalillar orqali jinoyatni aynan kim sodir etgani, kimlar aybdor ekani aniqlanadi. Bu jihat dalilning shaxsiylashtiruvchi (individuallashtiruvchi) funksiyasini ifodalaydi. Chunki jinoyat sodir bo'lganini aniqlash yetarli emas, balki uni sodir etgan shaxsni aniq belgilash muhimdir.

Uchinchidan, muallif dalilni faqat asosiy holatlar bilan cheklamay, balki "ishni haqqoniy hal etish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlar"ni ham qamrab oladi. Bu esa dalilning qamrovi keng ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni dalillar nafaqat jinoyat faktini, balki aybning og'irlik darajasini, jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlarni, shaxsning xususiyatlarini ham aniqlashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, eng muhim jihatlardan biri-dalil qonunda belgilangan tartibda to'plangan bo'lishi shartligi alohida ta'kidlangan. Bu dalilning protsessual shakliga urg'u beradi. Ya'ni ma'lumotning o'zi yetarli emas, u qonuniy yo'l bilan olingan bo'lishi kerak. Aks holda, bunday ma'lumot dalil sifatida e'tirof etilmaydi. Bu jihat bevosita dalillarning maqbulligi (admissibility) tamoyiliga bog'liq.

S.A.Golunskiy va M.A.Cheltsov kabi olimlar dalil deganda ob'ektiv voqelik faktlarini tushunishgan⁴. S.A.Golunskiy va M.A.Cheltsovning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, ular dalilni ham ma'lumot ham manba sifatida talqin qiladi. Ularning yondashuviga ko'ra, dalilni uning manbasidan ayri holda ko'rib bo'lmaydi. Masalan, guvohning ko'rsatuvlari ma'lumot, lekin guvohning o'zi (shaxs) va so'roq bayonnomasi-bu manba. Fikrimizcha, bu qarash dalillar maqbulligining shaklga oid talabini asoslaydi. Ya'ni ma'lumot qanchalik haqiqat bo'lmasin, agar u qonunda ko'rsatilgan manbadan olinmagan bo'lsa, u yuridik kuchga ega emas.

Biz S.A.Golunskiy va M.A.Cheltsovlarning yuqoridagi fikrlariga to'liq qo'shilamiz.

Darhaqiqat, dalillar maqbulligiga oid oliy sud plenumining 24-sonli qaroriga ko'ra, agar olingan dalilning manbasi noma'lum bo'lsa ushbu dalil nomaqbul dalil hisoblanadi.

P.A.Lupinskaya esa dalillarni har qanday faktlar haqida ma'lumot deb ta'riflagan⁵. P.A.Lupinskayaning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, u dalilni faktlar to'g'risidagi ma'lumot deb qisqa ta'rif bergan. U ko'proq dalilni o'tmishda sodir bo'lgan voqea haqida bugungi kunda bizga habar beruvchi axborot sifatida ta'riflagan. Lupinskaya tomonidan berilgan yuqoridagi ta'rif dalillarning aloqadorlik xususiyatiga ko'proq mos keladi. Uning fikricha, dalil fakt haqida ma'lumot beryaptimi demak u dalildir. Lekin bu yerda fikrimizcha, "maqbullik" masalasi keying darajaga tushib qolishi mumkindek ko'rinyapti. Bundan tashqari, biz faqat "ma'lumot" mezoniga tayansak, qonuniy shaklga ega bo'lmagan yoki manbasi noma'lum axborotlarning ham protsessga kirib kelishiga yo'l ochilgan bo'lar edi va bu esa dalillarning maqbulligi tamoyiliga zid kelishi mumkin.

M.S.Strogovichning fikricha, "Dalil – bu jinoyat fakti yoki jinoyat emasligini tasdiqlovchi ma'lumotlar yoki ishning boshqa holatlari, ikkinchidan, qonunda nazarda tutilgan,

⁴ Шейфер С.А. Понятие доказательства как предмет научной дискуссии/ Вестник Омского университета. Серия «Право». 2008. № 1 (14). С. 12–19.

⁵ Лупинская П.А. Общие положения о доказательствах и доказывании // Уголовный процесс: Учебник. М. 1995. С. 134

tergov va sudda ish uchun ahamiyatli ma'lumotlarni oladigan manbalar dalildir"⁶. Strogovich tomonidan berilgan ta'rif dalil tushunchasini ikki muhim tarkibiy qism orqali izohlab berilgan va u jinoyat-protsessual qonunchilikka mos yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Fikrimizcha, birinchidan, muallif dalilni jinoyat sodir etilgan yoki etilmaganligini, shuningdek ish uchun ahamiyatli boshqa holatlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar sifatida talqin qilgan.

U asosan dalilning mazmuniy tomoniga urg'u bergan. Ya'ni, dalil bu oddiy axborot emas, balki muayyan faktlarni isbotlashga xizmat qiladigan va ishning mohiyatini ochib beradigan ma'lumotdir. Ikkinchidan, Strogovich dalil tushunchasiga uning manbalarini ham kiritgan ya'ni qonunda nazarda tutilgan va tergov hamda sud orqali olinadigan ma'lumotlar manbalari ham dalil sifatida e'tirof etilishini aytib o'tgan. Bunda u dalilning protsessual shakliga alohida urg'u bergan.

Chunki har qanday ma'lumot dalil bo'la olmaydi-u faqat qonunda belgilangan manbalar orqali olinib hamda tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak. Demak, bu yerda dalilning maqbulligi va qonuniyligi masalasi ham bevosita aks etadi. Strogovich tomonidan berilgan ta'rifning ahamiyati shundaki, u dalilni ikki tomonlama-mazmun va shakl birligida ko'rib chiqqan.

Uning bu yondashuvi jinoyat-protsessual huquqda keng qo'llaniladi va zamonaviy qonunchilikda ham o'z aksini topgan. Sababi amaliyot shuni ko'rsatadiki, faqat mazmunan to'g'ri bo'lgan ma'lumot yetarli emas, balki u qonuniy manbadan olingan va protsessual tartibga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi ham zarur hisoblanadi.

A.A. Davletov o'zining "Jinoyat – protsessual bilim asoslari" asarida uchta dalilning mavjudligini batafsil ko'rsatadi. Uning fikricha, jinoyat – protsessual dalillar – dalil manbalari va izlarni tashuvchisi hamda ushbu tashuvchidan olinadigan va faktga asoslangan ma'lumotlar shuningdek ma'lumotni tashuvchining shakli va faktga asoslangan ma'lumotlarning yakdilligini ifodalaydi.⁷

Davletovning ushbu yondashuvi jinoyat-protsessual dalillarni uch tarkibli tizim sifatida tushuntirishi bilan alohida ahamiyatga ega. U dalilni oddiy "ma'lumot" sifatida emas, balki murakkab, o'zaro bog'langan elementlar birligi sifatida talqin qiladi.

Birinchidan, muallif dalilning asosiy elementi sifatida dalil manbai va izlarni tashuvchisini ko'rsatadi. Bu-dalilning moddiy yoki protsessual tashqi shakli hisoblanadi.

Masalan, guvoh, hujjat, video yozuv yoki ashyoviy predmet bularning barchasi ma'lumotni o'zida saqlovchi "tashuvchi"dir. Shu orqali Davletov dalilning mavjud bo'lishi uchun u muayyan manbaga ega bo'lishi shartligini ta'kidlaydi.

Ikkinchidan, u dalilning mazmuniy tomonini — ya'ni faktga asoslangan ma'lumotlarni ajratadi. Bu dalilning eng muhim qismi bo'lib, aynan shu ma'lumotlar orqali jinoyatning holatlari aniqlanadi. Agar tashuvchi mavjud bo'lsa-yu, unda ishga taalluqli faktik ma'lumot bo'lmasa, u dalil sifatida ahamiyat kasb etmaydi.

Uchinchidan, muallif alohida urg'u bilan ma'lumotni tashuvchining shakli va mazmunning yakdilligini ko'rsatadi. Bu juda muhim ilmiy nuqta: dalil faqat ma'lumot yoki faqat shakl emas, balki ularning uzviy birligidir.

A.A. Davletovning yondashuviga ko'ra, jinoyat-protsessual dalil oddiy faktik ma'lumot emas, balki u ma'lumotni tashuvchi manba, ushbu manbadan olinadigan faktik axborot hamda

⁶ Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса. М., 1968. Т. 1. С. 288-289

⁷ Давлетов А.А. Основы уголовно – процессуального познания. Свердловск, 1991. С. 62.

ularning protsessual shaklda ifodalangan uzviy birligidan iborat murakkab tizimdir. Mazkur yondashuv dalilning mohiyatini chuqurroq ochib berib, uni baholashda nafaqat mazmun, balki uning manbasi va qonuniy rasmiylashtirilish shaklini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Yuqoridagi olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan bo'lsak, "Dalil" so'zi bir necha ma'noga egaligini ko'rishimiz mumkin.

Fikrimizcha, yuqorida dalil tushunchasiga ta'rif bergan olimlar orasidan B. Rajabovning ta'rifi zamonaviy milliy qonunchiligimizga juda yaqin. Rajabov dalilning nafaqat ma'lumotligini, balki uning vazifasini va eng asosiysi olish tartibini ham yoritgan. Bundan tashqari, u maqbullikning asosiy elementini ya'ni qonuniy tartibda to'planganlik shaklini ham keltirib o'tgan.

M.S. Strogovich tomonidan berilgan dalil tushunchasiga munosabat bildirilganda unga ham qisman qo'shilish mumkin, chunki u dalilning mohiyatini tizimli yoritgan. Fikrimizcha, uning ta'rifini yutug'i shundaki u dalilni ikki jihatini birgalikda yoritib berganligidadir. Ya'ni, dalil faqat mazmunan emas, balki protsessual shaklga ega bo'ladi. Bu esa sud va tergov organlariga dalilni baholashda ikki mezonni-ishonchlilik va qonuniylikni birgalikda qo'llash zarur ekanligini ko'rsatadi. Natijada, noqonuniy yo'l bilan olingan, lekin mazmunan to'g'ri bo'lgan ma'lumotlarni rad etish uchun nazariy asos yaratiladi. Ammo, ushbu yondashuvning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Eng avvalo, u dalil va dalil manbasi tushunchalarini bir tizimda birlashtirgan. Zamonaviy jinoyat-protsessual nazariyada esa ko'pincha bu ikki tushuncha farqlanadi ya'ni dalil bu faktik ma'lumot, manba esa shu ma'lumot olinadigan vosita. Ularni bir tushuncha doirasida berish ayrim hollarda chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki, Strogovichning ta'rifi o'z davri uchun mukammal bo'lgan bo'lsada, bugungi kunda paydo bo'lgan yangi turdagi dalillarni, xususan, elektron va raqamli dalillarni to'liq qamrab olmaydi. Chunki, hozirgi davrda dalilning nafaqat manbasi, balki uni saqlash, qayta ishlash va autentifikatsiya qilish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, uning dalil tushunchasiga bergan ta'rifiga qo'shilish mumkin, ammo zamonaviy huquqiy amaliyot talablaridan kelib chiqib, ushbu ta'rifni yanada aniqlashtirish va ayrim jihatlarini rivojlantirish zarur.

Shuningdek, Davletov esa dalillar maqbulligiga qo'yilgan talablarni qonun normasi balki obyektiv borliqning huquqiy aksi sifatida tushunishga yordam bergan. Nazarimizda zamonaviy jinoyat protsessida dalilni faqat "fakt" yoki "manba" deb atash yetarli emas. Davletov tomonidan ilgari surilgan tizim dalilning maqbulligini tekshirish uchun mukammal formula hisoblanadi.

Agar bir faqat Lupinskayaning "fakt" haqidagi fikriga tayanadigan bo'lsak, noqonuniy yo'l bilan olingan, masalan, sud ajrimisiz o'tkazilgan tintuvda topilgan ashyo ham dalil bo'lib qolaveradi.

Dalil tushunchasi va uning mohiyati bo'yicha yuqoridagi olimlar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar mazmunida bizningcha dalillarni to'plash subyektlari masalasi ochiq qolgan. Ma'lumki, JPKning 81-moddasi mazmuniga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni aynan surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan. Biroq, aksariyat dalillar aynan tergovga qadar tekshiruv davrida tergovga qadar tekshiruvni olib boruvchi mansabdor shaxslar tomonidan to'planishi hisobga olinmagan.

Qizig'i, JPKning 329-moddasi 2-qismiga ko'ra tergovga qadar tekshiruv vaqtida hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, shaxsiy tintuv va olib qo'yish hamda aksariyat hollarda taftish o'tkazish mumkinligi belgilangan. Bunda qonunda sanab o'tilgan tergov harakatlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs o'tkazishi mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi. Normaning mantig'idan kelib chiqadigan bo'lsak, dalillar to'plash maqsadida o'tkaziladigan tergov harakatlari tergovga qadar tekshiruvning mansabdor shaxslari tomonidan o'tkazilgandan so'ng u tomonidan to'plangan dalillar dalil hisoblanmaydimi? degan haqli savol tug'iladi. Qolaversa, aynan ushbu mansabdor shaxslar tergovga qadar tekshiruv davrida to'plangan dalillarga asoslanib jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror qabul qilishadi. Ularning hatto jinoyat ishini qo'zg'atish vakolatlari ham mavjud.

Bizningcha, tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsini ham dalillarni to'plash vakolati mavjud va JPKning 81-moddasi normasining mazmunida "Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs" jumlasini aks ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek biz dalil tushunchasida ham ushbu jumlaning aks ettirish lozim deb hisoblaymiz.

Shuningdek yuqorida muhokama qilingan olimlarning fikr-mulohazalaridan, ilmiy tahlil etilgan tushunchalarning mazmun-mohiyati hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq, «dalil», tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'riflarimizni taklif etamiz:

***Dalil deganda,** haqiqatni aniqlash maqsadida jinoyat-protsessual qonun talablariga rioya qilgan holda olingan, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda qaror qabul qilishiga asos bo'ladigan isbotlash jarayonida yuridik kuchga va har qanday o'z manbasiga ega bo'lgan haqiqiy ma'lumotlar tushuniladi.*

Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, JPKning 81-moddasining 1-qismini quyidagicha tahrirlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

"haqiqatni aniqlash maqsadida jinoyat-protsessual qonun talablariga rioya qilgan holda olingan, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda qaror qabul qilishiga asos bo'ladigan isbotlash jarayonida yuridik kuchga va har qanday o'z manbasiga ega bo'lgan haqiqiy ma'lumotlar dalil hisoblanadi."

Xulosa qilib aytganda, dalil tushunchasi jinoyat-protsessual huquqda murakkab va ko'p qirrali kategoriya hisoblanadi. U o'zida nafaqat jinoyat ishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktik ma'lumotlarni, balki ushbu ma'lumotlarning manbalari hamda ularni qonunda belgilangan tartibda olish va mustahkamlash shakllarini ham mujassam etadi. Turli nazariy yondashuvlarning mavjudligi dalil tushunchasining keng qamrovli ekanligini ko'rsatsa-da, ularni umumlashtirish dalilni isbotlash jarayonining asosiy vositasi sifatida talqin etish zarurligini anglatadi. Shu bois dalillar jinoyat ishlarini har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rib chiqishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. G'. A. Yangiyevning Yangiyev Jinoyat sudlov ishlarini yuritishda dalillarga baho berishni takomillashtirish. Diss..., Toshkent, 2020. B-16.

3. Шейфер С.А. Понятие доказательства как предмет научной дискуссии/ Вестник Омского университета. Серия «Право». 2008. № 1 (14). С. 12–19.
4. Лупинская П.А. Общие положения о доказательствах и доказывании // Уголовный процесс: Учебник. М. 1995. С. 134
5. Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса. М., 1968. Т. 1. С. 288-289.
6. В.А. Rajabov Jinoyat protsessida isbot qilishning umumiy shartlari: Monografiya – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.-156B.
7. Давлетов А.А. Основы уголовно – процессуального познания. Свердловск, 1991. С. 62.